

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**“O‘ZBEK XALQ MUSIQA SAN’ATI VA
IJODIYOTINING TARIXIY ILDIZLARI,
ZAMONAVIY TARAQQIYOT
TENDENSIYALARI”**

mavzusidagi respublika ilmiy-nazariy anjuman materiallari

2023-yil 23-sentabr

Бухоро – 2023

O‘zbek xalq musiqa san’ati va ijodiyotining tarixiy ildizlari, zamonaviy taraqqiyot tendensiyalari” // Mavzusidagi respublika ilmiy-nazariy anjumani. Buxoro “Durdona” nashriyoti, 2023.

Anjumanning dasturiy qo‘mitasi

O.X. Xamidov	BuxDU Universitet rektori, rais;
T.H. Rasulov	BuxDU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, rais muovini;
A.R. Zokirov	O‘zMMSI O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor
F.N.Nurulloyev	Ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish departamenti boshlig'i
S.S.Azimov	BuxDU San’atshunoslik fakulteti dekani.
T.I. Rajabov	BuxDU Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedrası mudiri.
D.Yu.Ro‘ziyev	Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedrası professori, a‘zo;
B.I.Mustafoev	Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedrası dotsenti, a‘zo;
O.M.Axmedova	Yu.Rajabiy O‘zMMSI Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, f.f.n., professor v.b
A.S.Sunatillayev	Yu.Rajabiy O‘zMMSI O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘lim boshlig'i.

Anjumanning tashkiliy qo‘mitasi:

1. T.H. Rasulov BuxDU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, rais;
2. O.I. Karimov BuxDU Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedrası dotsenti;
3. O‘.U. Rashidov BuxDU Moliya va iqtisodiyot ishlari bo‘yicha prorektor, a‘zo;
4. F.N. Nurulloyev BuxDU Ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish departamenti boshlig‘i, a‘zo;
5. Sh.B.Nurlibayevna. Yu.Rajabiy O‘zMMSI “O‘zbek maqomi tarixi va nazariyasi” kafedrası mudiri
6. T.I. Rajabov BuxDU Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedrası mudiri.
7. R.I.Oripova Yu.Rajabiy O‘zMMSI O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti “Tillar, ijtimoiy-gumanitar fanlar va jismoniy madaniyat” kafedrası mudiri
8. Sh.X.Kamolov BuxDU Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedrası katta o‘qituvchisi, a‘zo;

Mas’ul muharrir:

B.I.Mustafoev Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedrası dotsenti

Taqrizchi:

D.Yu.Ro‘ziyev Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedrası professori

Shu nuqta nazardan aytish mumkinki, musiqani o'rganish, u bilan ijodiy munosobatga kirishish holatlari o'z o'rnida musiqachuniung faolligi natijasida sodir bo'ladi.

O'quv dasturiga kiritilgan materiallar, shu jumladan, qo'shiqlarning har biri o'quvchilarning musiqiy va insoniy madaniyatini boyitib borishga da'vat etadi, albatta. Lekin o'qituvchi musiqa darsiga har doim ham musiqa asari faqat o'rganish ob'ekti bo'ladigan o'quv materiali sifatida emas, balki o'quvchilarning his-tuyg'ularini shakllantiradigan vosita sifatida taqdim etilishi kerak. O'qituvchi har bir musiqa darsining rejasini tuzganda uning maqsadi va vasifasini mavzu talablari asosida ishlab chiqishi lozim.

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, musiqiy-pedagogik jarayon ta'lim-tarbiya masalalarini qamrab olishi va shular orqali o'quvchilarda estetik idrok, taqdimot, estetik his-tuyg'uni rivojlantirib borishi kerak. Shundagina o'quvchilar xotirasida hissiy tajribalar to'planadi, musiqa asralari, janrlarini taqqoslash, ularni tahlil qilish, umumlashtirish malakalari rivojlanadi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ramazonova O. K., Shukurov M. Historical development of status. – 2022.
2. Ramazonova U. H., Muhamadova M. The spiritual impact of traditional sound exercises on the minds of students. – 2022.
3. Kholmurodovna, Ramazonova Oghiloy, and Makhliyo Jamilovna Esanova. "The Importance of Imagination and Perception in Traditional Singing Performance." *Pioneer: Journal of Advanced Research and Scientific Progress* 2.2 (2023): 73-74.
4. Kholmurodovna, Ugiloy Ramazonova. "Formation of publicistic performing skills in singing." (2021).
5. Azimovna S. M. et al. THE BUKHARA PERFORMANCE STYLE IS A FACTOR IN THE DEVELOPMENT OF MORAL QUALITIES OF TEENAGERS //Zeta Repository. – 2023. – T. 4. – №. 04. – C. 1067-1071. Ramazonova O. K., qizi Mustaqimova G. G. Formation and Development of National Musical Traditions //european journal of innovation in nonformal education. – 2022. – T. 2. – №. 1. – C. 336-339.

MUSTAQIL ISHLARNI BAJARISHDA TALABALARNING KREATIV YONDASHUVI

Mirshayev Ulug'bek Muzafarovich

Buxoro davlat universiteti Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedrasida katta o'qituvchisi

Buxoro ixtisoslashtirilgan san'at maktabi Musiqa nazariyasi kafedrasida bosh o'qituvchisi Musiqachilarni tarbiyalash bilan bog'liq bo'lgan faoliyatlar orasida talabalar mustaqil ta'lim eng muhim element yoki (jarayon) bo'g'in hisoblanadi. Ko'pincha musiqa san'atida muvaffaqiyat aynan shu bilan belgilanadi. Ammo bu san'at sohasida musiqiy pedagogika nazariy jihatdan kam rivojlangani ko'rinib turadi. Ilmiy-pedagogik, uslubiy va ilmiy adabiyotlarning tahlili shuni ko'rsatdiki, musiqachilarni o'z ustida mustaqil ishlashga tarbiyalash, o'qituvchi tomonidan belgilangan maqsadlarga erishishdagi muammolarini tor doirada hal qilish tendensiyasi barqarorligini ko'rsatadi. Ko'pincha talabalarga berilgan topshiriqlar yordamchi xarakterdagi amaliy vazifalarni bajarishga qaratilgan. Musiqachilarni o'z ustida mustaqil ishlashga tarbiyalash muammosiga musiqiy pedagogikada yetarlicha baho berilmagan.

Yuqoridagilar yosh musiqachilarning mustaqil o'z bilimlarini oshirishi noto'g'ri olib borilayotganligini ko'rsatadi. Albatta, musiqachilarni tayyorlash jarayonida duch kelgan qiyinchiliklar obyektiv holatdir. Biroq, ularning engib o'tish mustaqil o'z ustida ishlash ko'nikma va malakalarini shakllanishini ta'minlashda talabalarning maxsus tayyorgarlikdan o'tishiga ehtiyoj borligi namoyon bo'ladi. Albatta, yosh musiqachilarni mustaqillikka, mustaqil o'z ustida ishlashga tarbiyalash oson ish emas. Ammo professor-o'qituvchi va talabaning bir istagi bilan ushbu muammoni hal etish etarli emasligi aniq. Bu ishda muvaffaqiyat qozonish uchun, talabaning mutaxassis sifatida rivojlanishi bilan bog'liq hodisalar va o'z ustida mustaqil ishlash malakalarni shakllantirish jarayonini tezlashtiradigan metodologiyalarni ishlab chiqish,

mustaqil ravishda shug'ullanishning butun davrini qamrab oluvchi bir qator juda aniq muammolarni hal qilish zarur.

Lekin birinchi navbatda, mustaqil ishlash, uning muvaffaqiyatini ta'minlovchi mexanizmlarni aniqlash, ularning funksional xususiyatlarini oydinlashtirish, musiqachining mustaqilligini, shu jumladan zarur ta'lim shakllaridan foydalanish, qulay sharoitlarni o'rganish, mustaqil ishlash jarayonini tashkil etish va amalga oshirishga to'sqinlik qiladigan sabablarni aniqlash kerak. Musiqachilarni kasbiy tayyorgarli bo'yicha adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, keng doiradagi musiqiy pedagogika amaliyotida yosh musiqachilarning mustaqil o'z ustida ishlashi muammosiga munosabat o'zgardi. Bir tomondan, musiqachilarga qo'yiladigan yuqori talablar ularning o'z ustida ishlashi majburiyatini nazarda tutgan bo'lib, bu ayniqsa 17-19-asrlarda maktablarda yaqqol namoyon bo'lgan.

Ikkinchi tomondan, musiqachilarning noto'g'ri shakllanishidan qo'rqib o'qituvchilar o'quvchilarga uy vazifasini berishdan qochishardi. "Ko'pgina o'qituvchilar o'quvchilarga uy vazifasini berishdan qochishadi. Hatto iqtidorli, professional talabalar ham vaqti-vaqti bilan o'qituvchilari bilan masq qilib ta'lim oladi", deb ta'kidlagan A. Menabeni. Bundan xulosa qilib musiqachilarni uzluksiz pedagogik nazoratsiz tarbiyalash mumkin emas degan fikr ilgari surilgan.

Shu bilan birga, mustaqil ta'lim, o'z ustida mustaqil ishlashning afzalliklari mutlaqo aniq. Musiqachini tayyorlash uzoq va murakkab jarayon ekanligini tushunishingiz kerak va uni amalga oshirishda tizimli yondashuvdan foydalanish maqsadga muvofiq. U muvaffaqiyatli ijrochilik faoliyatini ta'minlovchi ta'limning turli qirralarini qamrab oladi. Uni amalga oshirish uchun musiqachining nafaqat shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish, balki ularni o'zlashtirish kerak bo'lgan turli ijodiy va ijro mahorati va qobiliyatlari shakllantirish darkor.

Mustaqil ta'lim, ta'lim jarayonining eng muhim qismi bo'lib, cheklangan doiradagi muammolarni hal qilish uchun mo'ljallangan bo'lishi kerak emas. Shu munosabat bilan A.G. Menabening "Uzoq muddatli majburiy texnik mashqlarni qisman mustaqil ta'limga o'tkazish ijrochilik mahoratini rivojlantirish hamda ko'nikma va malakalarining shakllanishi jarayoni sur'atini tezlashtiradi va auditoriya mashg'ulotida vaqtni tejab ijrochilik mahoratini chuqurroq egallashga imkon beradi" – degan fikrini mustaqil ta'limda faqat texnik mashqlarni bajarish kerak deb tushunish kerak emas.

Mustaqil ta'limdan olinadigan foyda universal xarakter ega ekanligini ta'kidlash kerak. Biz mustaqil ta'limda qo'llaniladigan asosiy uchta yo'nalishni tavsiflashimiz mumkin:

- texnik mahoratni rivojlantirish;
- musiqiy asarlarni o'rganish va ijro etish va;
- musiqiy badiiylilikni rivojlanish, ijodkorlikni rivojlantirish.

Eng avvalo, mustaqil ishlashga to'sqinlik qiladigan obyektiv sabablarni ta'kidlash zarur. Ularni musiqachilarning mustaqil ishlashga tayyorligini belgilovchi shaxsiy xususiyatlarga va uni amalga oshirish jarayonini belgilovchi tashkiliy xususiyatlarga bo'lish mumkin. Ushbu xususiyatlardagi muammoni tahlil qilib, bir necha avlodni qiynab kelayotgan "qachon, qaysi vaqtdan boshlab va qay darajada musiqachilarni mustaqil o'z ustida ishlash amaliyotiga jalb qilish tavsiya etiladi" – degan savolga javob berish mumkin bo'ladi.

V. Sradzhev, O. Sradzheva va T. Korotnevalarning monografiyasida ushbu jarayonga to'sqinlik qiladigan omillar batafsil keltirilgan. To'g'ri undagi muammolar mustaqil ta'limni o'quv jarayoniga integratsiya qilish emas, balki musiqachilarni tarbiyalashning qiyinligi va ularni shaxs sifatida mustaqilligini tarbiyalash xususiyatlari nuqtayi nazaridan qaraladi. Bunda harakat ketma-ketligini ta'kidlaydigan hamda talab qiladigan o'ziga xos mantiq bor. Beixtiyor savol paydo bo'ladi, "qanday qilib o'quv jarayoniga mustaqil ta'limni kiritish kerak?" agar talabalar bunga tayyor bo'lmasa.

Monografiyada mualliflar o'zi ustida mustaqil ishlash muammosining to'rtta shart-sharoitlarini belgilaganlar:

Birinchi - mustaqil ishning mazmun-mohiyatini anglash va tahlil qilish imkonini beradigan rivojlangan musiqiy va badiiy mahoratga ega bo'lish zarur. Musiqachi, hatto

boshlang'ich bosqichda ham hech bo'lmaganda mustaqil ta'lim bilan bog'liq asosiy masalalarni tushuna olishi kerak. Shuni inobatga olish kerakki, fikrlash jarayonini bir soat va bir kechada shakllanmaydi. Uning samaradorligi keng bilimlar, ulkan ko'nikmalar miqdori, shuningdek, musiqachining o'ziga xos shaxsiy psixofiziologik xususiyatlarini bir butunga birlashtirilganligi bilan belgilanadi. Shuning uchun, musiqiy va badiiy tafakkurni shakllantirishdagi noaniqlik va murakkablik musiqachining mustaqil o'z ustida ishlay olmasligiga obyektiv sabab bo'lib xizmat qilishi mumkin;

Ikkinchidan - Musiqachining musiqiy tafakkurini shakllanishiga o'quv jarayonining o'ta murakkabligi ham ta'sir ko'rsatadi. "Qisqa vaqt ichida talabalar kasbining asosini tashkil etadigan asosiy bilim, ko'nikma va malakalarning butun tizimini egallashi kerak boladi". Musiqachini tarbiyalash bu shunday fazilatlarining butun bir majmuasiki - u turli xil mutaxassislik fanlarining o'zaro aloqadorligi natijasida rivojlanadi va mutaxassis bo'lib yetishiga xizmat qiladi. Musiqachi nafaqat o'z mutaxassisligi bo'yicha bilimlarni egallashi, balki undan tashqari u musiqiy-nazariy bilimlarini rivojlantirishi, fortepianoda chalishni, qo'shiq aytishni, sahna madaniyati va harakatlari chuqur o'rganishi kerak. Bunday aniq kompleks vazifalarni bajarish nafaqat harakat, balki juda ham ko'p mahsaqqat vaqt talab qiladi;

Uchinchidan - obyektiv xarakterga ega bo'lgan ta'limning dastlabki bosqichida mustaqil o'z ustida ishlash mexanizmining tashkil etimaganligidadir. Buning uchun obyektiv shartlar haqiqatan ham mavjud. Bunga bir nechta dalillar keltiramiz. Mashg'ulotlar davomida ijrochi o'zini yaxshi eshitmaydi. Bu akustika bilan bog'liq. Bu mashg'ulotning borishiga tubdan xalaqit beradi, natijada musiqachi o'z ijrosining baland yoki past dinamikada borishini aniq idrok eta olmaydi va tahlil qila olmaydi. Tabiiyki, bunday vaziyatda faqat o'qituvchi talabaga samarali yordam berishi mumkin. Obyektiv ravishda talaba mashg'ulotda o'qituvchi borligini haqiqiy his qiladi hamda mashg'ulotda o'qituvchidan foyda ko'rishini va ijrosida rivojlanish dinamikasini borligini qayd etadi. Natijada talabada "mashg'ulotlarni faqat o'qituvchi rahbarligi ostida olib borish kerak" degan ishonch shakllanadi va mustaqil izlanish faqat zarar keltiradi deb o'laydi. Bu argument mustaqil o'z ustida ishlashni rad etishga sabab bo'ladi.

Musiqachida mustaqil o'z ustida ishlashga to'sqinlik qilayotgan oxirgi sabab bu yakuniy maqsadining noaniqligi bo'lib xizmat qiladi. Musika maktablari, hatto oliy ta'limdagi boshlang'ich kurslarda talabalar kelajakdagi ish faoliyatlarda ularga qo'yiladigan haqiqiy talablar qanday bo'lishi haqida juda mavhum fikrlarga ega. Aniq yakuniy maqsadlarsiz, yosh musiqachilar tegishli talab va vazifalarni bajara olmaydilar. Shuning uchun ularning barcha umidlari o'qituvchida bo'lib, har kuni o'qituvchining ko'rsatmalarga rioya qilib, uning nazorati ostida mashq qilishga ko'nikib qolishadi. Bu esa talabalarda yangi g'oya, tashabbuskorlik va ijodkorlikni so'ndiradi. Vaqt o'tishi bilan bu holat nafaqat odatiy, balki allaqachon "qulay"holatga aylangan bo'ladi. Yosh musiqachilar bunday munosabatni umr bo'yi saqlab qolishi mumkin. Bunday munosabat o'qituvchi va talabalar ongida ularning mustaqil o'z ustida ishlashi zarur emasligi haqidagi fikrni shakllanishiga hamda mustaqil ta'limdan voz kechishga olib keladi.

Xulosa qilib aytganda, mustaqil ishlarni bajarishda kreativ yondashuv pedagogik ahamiyatga molik masalalardan biri ekanligini inobatga olib, har bir professor-o'qituvchi o'z mutaxassisligi bo'yicha ta'lim berishda, talabalarning mustaqil ishlarini nazorat qilishga alohida e'tibor qaratishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Юй Пин. Организация самостоятельной работы вокалиста в процессе обучения сольному пению (На примере освоения распевок при обучении академическому пению китайских вокалистов) Россия. Белгород 2023.
2. Менабени А.Г. Самостоятельная работа студентов при обучении сольному пению. // Вопросы вокальной педагогики. /Сб. стат. - М.: Музгиз, 1976. - № -5. - С.247-261.
3. Сраджев В., Сраджева О., Коротнева Т. Развитие самостоятельности мышления в классе сольного пения. – М.: ООО Прогресс, 2011. – 211 с

T.D.Muxamedov, Samandarova Madina G'ayrat qizi. BAXSHICHILIK SAN'ATI – UMUMINSONIY QADRIYAT.....	62
Hayitov Zafar Soatovich. Qashqadaryo-Surxondaryo doston ijrochilik an'analari.....	64
Umurova Ma'rifat Yoshiyevna. Xalq qo'shiqlari vositasida o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish dolzarb pedagogik muammo sifatida	67
Ayapov Salamat Baxiyevich. Qobiz saz aspabi haqqida aniz apsanalar.....	71
Samiyeva Mehriniso Azimovna. Musiqiy ta'lim jarayonida mahalliy "Buxoro ijrochilik uslubi"ni o'rgatishning o'ziga xosligi.....	73
Д.Н.Обидов. МУСИҚИЙ МЕРОС ВА ЖОНЛИ УРФ-ОДАТЛАР	75
Abdumannatova Aziza Abdumajit qizi. BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHILARIDA XALQARO MAQOM, BAXSHICHILIK, FOLKLOR SAN'ATI VOSITASIDA TOLERANTLIKNI RIVOJLANTIRISH	77
Ozoda Latipova, Karimov Saxob. MUSIQA MADANIYATI TARIXI XALQIMIZ O'TMISH TARIXINING AJRALMAS QISMI SIFATIDA.....	80
Rahimov Oybek Takilovich. Rubobda ijro etish mahoratini rivojlantirish usullari.....	83

3-SHO'BA. OLIY VA UMUMTA'LIM TIZIMIDA MUSIQA MADANIYATI TA'LIMINING TARAQQIYOT TENDENSIYALARI.....85

Ro'ziyev D.Yu. Musiqa o'qituvchisining muloqot san'ati, tashkilotchilik qobiliyati va tadqiqot ko'nikmalarini egallashi.....	85
E.K.Djalilov. XALQ QO'SHIQLARI ORQALI O'QUVCHILARNING MA'NAVIY-AXLOQIY FAZILATLARINI SHAKLLANTIRISH.....	88
B. Mustafoyev. MAKTABDA MUSIQIY-PEDAGOGIK JARAYONNI TASHKIL ETISH VA SAMARALI BOSHQARISHDA FAN O'QITUVCHISINING FAOLIYATI	90
Sh.N.Omanqulova. BO'LAJAK MUSIQA TA'LIMI O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLILIGINI CHOLG'U IJROCHILIGI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH.....	92
G.M.Davronova. Musiqiy ta'lim-tarbiyasi vositasida shaxs ma'naviy salohiyatini shakllantirish va takomillashtirishning ijtimoiy mexanizmlari.	94
Nurullayev F.G. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING MUSIQIY FAOLIYATI.....	97
Oripova Ra'no Ibrohimovna. O'QUV-TARBIYA JARAYONIDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR USTUVORLIGINING MOHIYATI.....	100
Ходжаев Б.Қ., Ходжаев Б.Б. Музыка маданияти таълими воситасида ўқувчиларда ватан ифтихори туйғусини шакллантиришнинг айрим йўллари.....	104
I. F.Qayumov. YOSHLAR MA'NAVIYATINI RIVOJLANTIRISHDA MUSIQANING ADABIYOT BILAN BOG'LIQLIGI	106
Ramazonova O'g'iloy Xolmurodovna. Musiqiy-pedagogik jarayon va ta'lim-tarbiya masalalari	107
Mirshayev Ulug'bek Muzafarovich. MUSTAQIL ISHLARNI BAJARISHDA TALABALARNING KREATIV YONDASHUVI	109
VYST CHOLG'U IJROCHILIGI MASHG'ULOTLARIDA TA'LIM VA TARBIYANING MUSHTARAKLIGI_Hamroqulov N. B.....	112
Hasanov Halim Ravshanovich. Musiqa madaniyati darslarini o'qitishda fanlararo aloqadorlik ("Ona tilim" qo'shig'ini o'rgatish misolida).....	114
Matyakubova Umida Gayibayevna, Matyakubov Ergash G'ayibayevich. "O'QUVCHILARDA MUSIQA DARSLARI VOSITASIDA AXLOQIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI".....	115
Imomnazarova Aziza Rustamovna, Hamrayeva Umida Shonazarovna. MAKTAB MUSIQA TA'LIMIDA FORTEPIANO CHALISHGA O'RGANISH USLUBLARI	117
Musurmonova Durдона Shukur qizi, Hamrayeva Umida Shonazarovna. FORTEPIANO SINFIDA MUSIQA ASARI USIDA ISHLASHNING ASAOSIY VAZIFALARI.....	119
Hamrayeva Umida Shonazarovna. FORTEPIANO MASHG'ULOTLARIDA ANSAMBLLIK USTIDA ISHLASH USLUBLARI.....	121

Абдуллаев Сухроб Сайфуллаевич. ОСОБЕННОСТИ ОБУЧЕНИЯ РИСУНКУ СТУДЕНТОВ ПЕРВОГО КУРСА НАПРАВЛЕНИЯ ОБРАЗОВАНИЯ «ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОЕ ИСКУССТВО И ИНЖЕНЕРНАЯ ГРАФИКА».....	172
Azimova Muhayyo Barotovna. BUXORO ANANAVIY ZARGARLIK SAN'ATI. ALISHER XAYDAROV IJODI.....	174
G.R. Ostonova. Tasviriy san'atda qobiliyat va ijod psixologiyasi.....	176
Bakayev Shodijon Shokirovich. BUXORO ME'MORCHILIK MAKTABINING XVI ASRDAGI TADRIJI VA O'ZIGA XOSLIGI.	178
Avliyakulova Nafisa Muzafarovna. BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI INNOVATSION FAOLIYATGA TAYYORLASH KONSEPSIYASINI YARATISHDA O'QITUVCHI SHAXSINI SHAKLLANTIRISH.....	181
Jumayev Qoryog 'di Jo'rayevich. P.P. Benkov o 'zbek rangtasvirining asoschisi.....	183
Ёдгоров Н.Ж. Бухоронинг маданий тарихий меросини асрашдаги муаммолар ва ечимлар.....	185

PROFESSOR BAXROM XUDOYNAZAROVICH MADRIMOV XOTISASIGA BAG'ISHLANGAN MAQOLALAR.....187

Иноятлов С.И. Хоразму Бухорони яккадам қилган забардас санъатшунос олим	187
С.Қ.Қаҳҳоров. Кўхна Хиванинг сеvimли фарзанди эди.....	188
Дурдимурод Дурдиев. Меҳнаткаш олим, моҳир педагог, самимий инсон эди.....	189
С.Ф. Абдуллаев. Волшебная сила музыки.....	189
Тўхтасин Ибодович Ражабов. Устозлик буюк мақом.....	192
Баротов Ш.Р. Саодатли санъаткор ва иқтидорли олим эди... ..	193
Б. Мустафоев. Самимий дўст, бағри кенг устоз ва фидойи раҳбар эди.....	194
А.М.Кадиров. Хоразмнинг илм-маърифатли фарзанди эди... ..	195
Мухторов Э.М. Хоразм мусиқа санъатини Бухорога олиб кирган олим.....	197
Азимов Санжар Самадович. Мардлик, садоқат феълида бор... ..	198
Аскар Хидиров. Икки юрт фарзанди.....	199
Said Bolta-Zoda Saidiy. Hamkasblar do'sti, shogirdlarning muhtaram ustози edi!.....	199
Давлатназар Юсупов. Шогирдлар камоли - устоз қувончи	200
Рахимов Б. Садоқатли дўст инсон ҳаётининг мустаҳкам таянчи	201
Мухамедов Тўлқинжон Джураевич. Санъатни илмга боғлаган олим	202
Ш.У.Норова. Ко'ҳна Хоразмдан yangragan sado	204
Қодирова Машҳура. Санъат фидойиси эди... ..	205
A.A.Xaydarov. Sermahsul musiqashunos olim	205
Umurova Ma'rifat Yoshiyevna. Sharafli maqsadlarga umr baxshida qilgan ustozlar hamisha xotiramizda yashaydi.....	206